



ISSN: 1994-4233
E-ISSN: 2181-1237
DOI: 10.36078

Filologiya Masalalari
Philology Matters

ILMIY-METODIK
JURNAL

2026/1

MUNDARIJA

TILSHUNOSLIK

Muxammad CHUTPULATOV. Ingliz va o‘zbek tillaridagi antropotsentrizmga asoslangan paremiologik birliklarning lingvostatistik tahlili.....	3
Nilufarxon MAXMUDOVA. O‘zbek va ingliz tillarida gradatsiya hodisasining qiyosiy-tipologik tadqiqi.....	18
Nafruza AZIZOVA. Frazeologik birliklarda inson tashqi ko‘rinishi konseptining lingvokognitiv ifodalanishi.....	39
Zilola RUZIYEVA. Rus tilida fe‘lning zamon-tur xususiyatlari va harakat usullari tizimi.....	55
Madina XOLMURODOVA. Ma’naviyat ma’nolarini ifodalovchi leksik birliklar aksiologik tadqiqining nazariy asoslari.....	74

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ilyos ISMOILOV. “Hayrat ul-abror” dostoniga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar ...	87
Agata OSIPOVA, Sufiya GIZATULLINA, Malikahon AKROMHONOVA. Ekzistensial makon: V.Pelevinning “iPhuck 10” romanida marginallik me’yor sifatida.....	109
Rayxon NAZAROVA. XX–XXI asr ingliz romanida ekfrasis: narratologik va semantik jihatlar.....	125

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Shoxida ABDULLAYEVA. Ingliz va o‘zbek iqtisodiy diskursida moliyaviy-iqtisodiy terminlar tarjimasining funksional-pragmatik xususiyatlari.....	144
Iroda KAXAROVA. Emotiv, taqlid, modal so‘zlar pragmatikasi hamda tarjima xususiyatlari.....	167
Farida NE’MATOVA. Xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasining lingvopragmatik tadqiqi.....	176

METODIKA

In Suk JEONG. Koreys tilidagi idiomalarni kompyuter yordamida til o‘rganish yondashuvi asosida o‘qitish bo‘yicha dastlabki sinov tadqiqoti.....	185
Gulandom BAKIYEVA, Adash RUSTAMOVA. Scopusga yo‘l: ilmiy maqola yozish metodikasi.....	200
Malika KAMALOVA. Rus tili leksikasini o‘qitish jarayonida iqtisodiy OTmlari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari.....	228

JURNALISTIKA

Klimentina ISMAILOVA. Zamonaviy radiopublitsistika da personifikatsiya usullari.....	254
---	-----

TARIX QAYTA SO‘ZLAGANDA

Dilorom YORMATOVA. Hazrat Zahiriddin Boburning farzandlari va katta o‘g‘il	
---	--



Received: February 7, 2026
Accepted: March 22, 2026
Available online: March 25, 2026

Ilyos Ismoilov

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIGA BAG'ISHLANGAN MAXSUS TADQIQOTLAR

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni maxsus o'rganilgan tadqiqotlarni kompleks tahlil etish orqali bu jarayonga oid yutuq va kamchiliklar, yetakchi tendensiya va xususiyatlarni ochib berish, yechimini kutayotgan ilmiy muammolarni aniqlab olishdan iborat. Mazkur doston 1483-yilda yaratilgan bo'lib, u 3988 baytdan iborat. Doston tuzilishi jami 43 ta bob, shundan 20 ta bobi debocha, 20 ta bobi asosiy qism va 3 ta xotimadan tashkil topgan.

Tadqiqotning vazifalari mazkur maqsaddan kelib chiqadi: “Hayrat ul-abror” haqida maxsus yozilgan yirik tadqiqotlarni sistemali tadqiq etishning prinsiplarini belgilab olish; mavjud tadqiqotlarni aniqlash va to'plash; ulardagi yondashuvlarga xos eng muhim jihatlarni saralash; talqinlarning mohiyatini ochib berish; erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan xatolarni ilmiy asosda izohlash hamda dostonning o'rganilish tarixi va jarayoni manzarasini yaratish asosiy vazifalarni tashkil etadi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish hamda ularni samarali hal etish uchun qiyosiy-tarixiy, madaniy-tarixiy, sistemali yondashuv, tavsiflash kabi metodlardan foydalanildi, shuningdek, o'zbek va xorijiy mutaxassislarning shu masala borasida yozgan maqolalari, qarashlariga metodologik asos sifatida tayanildi.

Tadqiqot davomida bir necha ilmiy xulosalarga kelindi. Birinchidan, “Hayrat ul-abror” dostonining o'rganilish tarixi Alisher Navoiyning o'z talqinlaridan boshlanadi,

Ilyos Ismoilov

Associate Professor, Doctor of Sciences
(DSc) in Philology
Alisher Navoiy Tashkent State University of
the Uzbek Language and Literature
E-mail: ismoilovilyos891@gmail.com
ORCID iD: 0000-0002-8077-7914

SCHOLARLY STUDIES DEVOTED TO THE EPIC *HAYRAT UL-ABROR*

ABSTRACT

The aim of this study is to conduct a comprehensive analysis of specialized research devoted to *Hayrat ul-Abror* by Alisher Navoiy in order to identify the achievements and shortcomings of this scholarly process, reveal its leading tendencies and distinctive features, and determine unresolved scientific problems. This epic poem was composed in 1483 and consists of 3,988 couplets. Its structure comprises a total of 43 chapters: 20 introductory chapters (debocha), 20 chapters forming the main body, and 3 concluding sections.

In line with this aim, the objectives of the study include establishing principles for the systematic examination of major specialized studies, identifying and compiling existing research, classifying key methodological features, clarifying the essence of interpretations, explaining achievements and shortcomings on a scientific basis, and reconstructing the historical and analytical landscape of the epic's study.

To achieve these objectives, comparative-historical, cultural-historical, systemic, and descriptive methods are employed, drawing on the works and theoretical perspectives of Uzbek and international scholars as a methodological foundation.

As a result of this analysis, several conclusions were reached. First, the study of *Hayrat ul-Abror* begins with the interpretations of Alisher Navoiy himself, later continued by his contemporaries and followers within the *Khamsa* tradition. Second, modern scholarly research based on academic criteria began in the

keyinchalik shoirming zamondoshlari va izdoshlari “Xamsa” bahonasida ijobiy fikrlar bildirishgan. Ikkinchidan, “Hayrat ul-abror” dostonini zamonaviy ilmiy mezonlar asosida tadqiq etish ishlari XX asr boshlari, aniqrog‘i, XX asrning o‘ttizinchi yillaridan boshlanadi. Uchinchidan, asarni maxsus tadqiq etish XX asrning yetmishinchi yillaridan boshlangan. Bu jarayonni A.Qayumov boshlab bergan. To‘rtinchidan, XX asrdagi tadqiqotlarda asosiy e‘tibor dostonning ijtimoiy-siyosiy qatlamini tahlil etishga qaratilgani aniqlangan. Beshinchidan, mustaqillik davri boshida dostonning irfoniy-ma‘rifiy talqiniga katta e‘tibor qaratilgani va bu jarayon M.Muhiddinov tadqiqotlari bilan boshlangani ochib berilgan. Oltinchidan, hozirda “Hayrat ul-abror”ni o‘rganish jarayoni tasavvufiy-ma‘rifiy talqin, poetik tahlil va komparativistik yondashuvlar kesimida rivojlanib borayotganligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Xamsa”, “Hayrat ul-abror”, navoiyshunoslik, jarayon, avtointerpretatsiya, komparativistika, tahlil, talqin, munosabat.

KIRISH

Har bir asarning o‘rganilish tarixi o‘sha asarning yuzaga kelish jarayoni bilan bevosita aloqador bo‘lgani bois tahlilni “Hayrat ul-abror”ning yaratilish tarixini muxtasar yoritishdan boshlaymiz. “Hayrat ul-abror”ning yaratilish tarixi borasida asarning o‘zida muhim qaydlar mavjud. Navoiy asarning yozilgan yili va bunday nomlanishi sababini shunday izohlaydi:

Hayrati abror ko‘rub zotini,
“Hayratul-abror” dedim otini.

Nuktayi ta‘rixiki, ahsan edi,

Sekiz-u sekiz yuz-u seksan edi [Navoiy, 1991; 344].

Ya‘ni, doston mohiyatan abror toifaning hayratini ifodalagani sababli uning otini “Hayrat ul-abror” (abror hayrati) deb qo‘ydim. Asarning tamomlangan vaqti ham juda chiroyli sana bo‘lib, hijriy 888-yil (1483)dir.

Alisher Navoiy bu nomni o‘z asari uchun maxsus tanlab olgani nazarda tutilsa, u mazkur so‘zlarning istilohiy ma‘nolarini nazarda tutgani oydinlashadi. Agar mazkur ikki terminning istilohiy ma‘nolari umumlashtirilsa, “Hayrat ul-abror” degan nom abror, ya‘ni go‘zal xulq-atvorga va qalb pokligiga riyozat bilan intiluvchi kishilarning haqiqat sirlari, mohiyat kashfidan tuygan hayrati ma‘nosini anglatishi ma‘lum bo‘ladi [Bu haqda yana qarang: Ismoilov, 2025]. Navoiyning ushbu ijodiy niyati doston debochasidanoq ochiq seziladi, jumladan, ko‘ngilning uch hayrati haqidagi fasllar fikrimizning yorqin isbotidir.

“Hayrat ul-abror”ning yozilishi o‘ziga xos tarixga ega. Navoiy bu haqda

early twentieth century, particularly in the 1930s. Third, specialized research on the epic developed from the 1970s, initiated by A.Qayumov. Fourth, twentieth-century studies primarily focused on the socio-political layer of the epic. Fifth, in the early independence period, significant attention shifted to mystical-educational (irfan-based) interpretations, beginning with the works of M.Muhiddinov. Finally, contemporary research is developing within Sufi-educational, poetic, and comparative approaches.

Key words: Alisher Navoi, ‘Khamasa’, ‘Hayrat ul-Abror’, Navo‘i studies, process, auto-interpretation, comparativism, analysis, interpretation, attitude.

dostonning XIII bobida to‘xtaladi. Unga ko‘ra, Jomiy va Navoiy ishtirok etgan bir majlisda xamsanavislik an‘anasi, xususan, Nizomiy va Xusrav “Xamsa”lari to‘g‘risida so‘z ketadi. “Maxzan ul-asror” va “Matla ul-anvor” boshqalarnikidan jiddiy farq qilishi, ularda “o‘zga hol” borligi aytiladi [Navoiy, 1991; 54]. Ya‘ni bu an‘ana doirasida muayyan asarlar yuzaga kelgan, ammo barchasining mazmun-mohiyati majoz – dunyoviy masalalar, zohiriy go‘zallik haqidagi gap-so‘zlardan iborat bo‘lgan. “Maxzan ul-asror” va “Matla ul-anvor” dostonlari esa ayni shu jihatdan jiddiy farqlarga ega bo‘lgani ta‘kidlanadi:

Ul ikkisini biri gavharfishon,
Gavharida nuri yaqindin nishon.
Ul birisi dog‘i bo‘lub nurposh,
Nuri aro partavi tahqiq fosh [Navoiy, 1991; 54].

Ya‘ni, “Maxzan ul-asror” – gavharlar bilan to‘la va gavhar sochuvchi bo‘lib, uning gavhari (ma‘nosi)da nuri yaqin – haqiqatni tanish, anglash nuridan nishonalar bor. “Matla ul-anvor” ham nur sochuvchi bo‘lib, uning nuri aro haqiqat shu‘lasi mujassam va ma‘rifiy qarashlar ifodasi Nizomiy “Maxzan ul-asror”iga qaraganda Xusrav “Matla ul-anvor”ida yorqinroq aks etgan.

E‘tiborli tomoni shundaki, majlis ahli Nizomiy va Xusrav dostonlarini shu turdagi o‘nlab dostonlarga nisbatan ustun qo‘yishda aynan ilohiy haqiqatlar – ilohiy muhabbat ifodasini mezon qilib olishadi. Boshqa dostonlarni tanqid qilganda esa zebi majoz kuylanganini asos qilib olishadi. Maqtov va tanqidga asos qilib olingan asoslar – majoz va haqiqat ifodasi prinsipial tafovutni yuzaga chiqaradi. Navoiyning qayd etishicha, “Maxzan ul-asror” va “Matla ul-anvor”da boshqa shu turkumdagi dostonlarda bo‘lmagan afzal jihat – “haqiqat o‘tidan chosh”ni mavjud:

Nukta suv yanglig‘ eritur toshni,
Topsa haqiqat o‘tidin choshni.
Bo‘lsa haqiqat guharidin yiroq,
Rishta so‘zin so‘zlamagan yaxshiroq [Navoiy, 1991; 54].

Navoiyning mazkur munosabati uning o‘z “Xamsa”si, xususan, “Hayrat ul-abror” mazmuniga ham muhim ishora ekani bilan ahamiyatli.

Qisqasi, o‘sha majlisda mana shunday gap-so‘z bo‘lib o‘tadi. Oradan bir-ikki oy o‘tgach Navoiy Jomiy ziyoratiga boradi, shunda Jomiy bir qoramani Navoiyga uzatib, buni boshdan oyoq o‘qib chiqishni so‘raydi. Bu – Jomiyning “Maxzan ul-asror” va “Matla ul-anvor”ga tatabbu o‘laroq yaratgan “Tuhfat ul-ahror” dostoni edi:

Boshtin-ayoq gavhari shahvor edi,
Qaysi guhar, “Tuhfat ul-ahror” edi [Navoiy, 1991; 55].

Navoiy shundan so‘ng mazkur uch dostonni muqoyasa qilib muhim xulosalar bildiradi. “Tuhfat ul-ahror”ni avvalgi ikki dostonga nisbatan foydaliroq deb baholaydi, shuningdek, Jomiyning dostonida ularda bo‘lmagan yangi-yangi ma‘nolar borligini yozadi [Navoiy, 1991; 55].

Xullas, “Tuhfat ul-ahror”ni o‘qigacha Navoiyning ko‘nglida shunday asar yaratish “havasi dag‘dag‘a soladi”. Xamsanavislikni yo‘lga o‘xshatib, ular yurgan yo‘ldan yurib ko‘rishni istaydi. Biroq ulardan farqli ravishda turkiy tilda doston

yaratishni tusaydi [Navoiy, 1991; 55].

Navoiy shu tariqa “Hayrat ul-abror”ning yaratilish tarixi, bu jarayonning boshlanishiga turtki bo‘lgan voqeani hikoya qiladi. Salafariga munosib izdosh bo‘lish shavqi bilan “Xamsa” yaratishga kirishganini xotirlaydi. Navoiy bu yerda “Hayrat ul-abror” yozilishiga ijodiy bahs va Jomiy “Tuhfat ul-ahror”i turtki bo‘lganini aytsada, keyinchalik “Muhokamat ul-lug‘atayn”da “Hayrat ul-abror”ni “Maxzan ul-asror” ta’sirida yaratganini yozadi [Navoiy, 2000; 26].

TADQIQOT METODLARI

Xamsashunoslikning dastlabki va muhim irmog‘i bo‘lgan “Hayrat ul-abror” dostonining o‘rganilish tarixi yoritish jarayonida, asosan, sistemali yondashuv va xronologik prinsiplariga tayanildi. Ilmiy muammo ancha katta bo‘lgani [Fitrat, 2013; Sharafiddinov, 1971; Jalolov, 1968; Ayniy, 1967; Oybek, 1979; Oybek, 1967; Shayxzoda, 1972; Levend, 1965; Levend, 1967; Bertels, 2015; Mallayev, 1976; Mallayev, 1980; Valixo‘jayev & Vohidov, 1981; Hayitmetov, 1963; Xayitmetov, 1977; G‘anixo‘jayeva, 1967; Abdug‘afurov, 1995; Sirojiddinov, 1997; Sirojiddinov, 1998; Abduqodirov, 1998; Yusupova, 2011; Jo‘raqulov, 2017] bois uni konkret ilmiy tahlil metodlari va sistemali yondashuv orqaligina qamrab olish mumkin bo‘ladi. Dostonning o‘rganilish tarixi ancha uzun bo‘lganidan masala, dastlab, quyidagi ikki qismga tasniflab olindi:

- 1) muallif va uning zamondoshlari, izdoshlari talqinlari;
- 2) zamonaviy tadqiqotlar [Bu haqda yana qarang: Erkinov, 2021; 38].

Ushbu tasnif ham o‘z ichida yana bir necha qismlarga ajratildi, shu yo‘l bilan ko‘zlangan maqsadga erishish birmuncha qulaylashdi.

Dastlabki guruh o‘z ichida quyidagi qismlarga ajratildi:

- a) muallif talqinlari;
- b) zamondoshlari va izdoshlari e’tirofi.

Ikkinchi guruh o‘z ichida quyidagi qismlarga ajratildi:

a) “Hayrat ul-abror”ga biror masala munosabati bilan murojaat etgan (ikkilamchi) tadqiqotlar;

b) “Hayrat ul-abror”ga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar.

Agar masalaga ushbu tasnif asosida yondashilsa, asar tadqiqining real manzarasi, erishilgan natijalarning ahamiyati, qilingan va qilinishi kerak bo‘lgan ishlar xususida konkret tasavvur shakllanadi.

Mavjud ishlarni faqat xronologik prinsipda yoxud tillar kesimida ham olib qarash mumkin. Xronologik prinsip asosida masalaga yondashilsa, tadqiq jarayonining dinamikasi yaxshiroq namoyon bo‘ladi. Tillar kesimida olib qarash esa tadqiqotlar geografiyasi to‘g‘risida aniqroq tasavvur beradi. Biz sistemali yondashuv va yuqoridagi tasnif asosida masalani tadqiq etamiz, chunki unda keyingi ikki yondashuvga xos afzalliklar xiraroq bo‘lsa-da ko‘zga tashlanib turadi.

Qo‘yilgan maqsad erishish hamda vazifalarni amalga oshirish uchun qiyosiy-tarixiy, madaniy-tarixiy, sistemali yondashuv, tavsiflash kabi metodlardan foydalanildi. Qiyosiy-tarixiy metoddan “Hayrat ul-abror”ning yaratilish tarixini yoritish, muallif

talqinlarini keyingi davrlardagi talqinlar bilan muqoyasa qilish, mavjud ishlarni baholash va talqin jarayonidagi o'zgarishlarni, tendensiyalarni aniqlash jarayonida keng istifoda etildi. Madaniy-tarixiy metoddan, asosan, madaniy muhitning, tarixiy-ijtimoiy davrning tegishli tadqiqotlarga ko'rsatgan ta'sirini belgilashda foydalanildi. Sistemali yondashuv esa dostonga oid maxsus tadqiqotlarni sistemalashtirish, ularning mazmun mundarijasini tizimli ochib berishda juda qo'l keldi. Tavsiflash metodi esa har bir tadqiqotning strukturasi, ularda aks etgan masalalar va talqinlarni bayon qilishda qo'llanildi. Tadqiqot davomida o'zbek va xorijiy mutaxassislarning ilmiy muammoga doir maqolalari, qarashlariga metodologik asos sifatida tayanildi.

Ta'kidlash kerakki, "Hayrat ul-abror" dostonining o'rganilish tarixi – alohida va katta ilmiy muammo, uni bir maqola doirasiga sig'dirish mushkul. Shu bois maqolada ushbu muammoning faqat bir qismini – "Hayrat ul-abror"ga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlarni tadqiq etish bilan cheklanamiz.

NATIJALAR

Alisher Navoiy turkiy tilda ilk bor mukammal "Xamsa" yozgach, ijod ahli orasida shuhrati yanada ortdi. Bu muhtasham badiiy obidaning dovrug'i tillarda doston bo'ldi. Unga ko'plab javoblar yozildi. Alisher Navoiy "Xamsa"sig'a bo'lgan qiziqishning bunday kuchayishi navoiyshunoslik, xususan, uning muhim tarmog'i – xamsashunoslik yuzaga kelishi va rivojlanishiga turtki berdi.

Xamsashunoslik, dastlab, Alisher Navoiyning o'z talqinlari asosida yuzaga keldi. So'ngra Navoiy zamondoshlari va izdoshlarining munosabati bilan rivojlana boshladi. Bu jarayon vaqt o'tgan sari kengayib ham chuqurlashib bordi. Natijada nafaqat butun "Xamsa", balki uning har bir dostoni bo'yicha tadqiqotlar silsilasi vujudga keldi. Zamonaviy yondashuvlar xamsashunoslikka ham tatbiq etildi. Shu tariqa allaqachon Alisher Navoiy "Xamsa"sining har bir dostoniga oid tadqiqotlar va yondashuvlar xususida maxsus to'xtalish zarurati paydo bo'lib ulgurdi.

"Hayrat ul-abror" dostonini maxsus tadqiq etish ishlari o'tgan asrning yetmishinchi yillarida boshlandi. Bu tabiiy va mantiqiy jarayonning natijasi bo'ldi, chunki bungacha doston ko'proq Alisher Navoiy ijodiga oid umumiy ishlar doirasida yoki alohida maqola-tadqiqotlarda tahlilga tortilgan edi. 1960-yilda "Xamsa"ning nisbatan mukammal matni Porso Shamsiyev tomonidan krill alifbosida nashr etildi [Navoiy, 1960]. Ushbu ikki omil o'zbek navoiyshunosligida "Hayrat ul-abror"ga oid maxsus tadqiqotlar yuzaga kelishida muhim rol o'ynadi. O'tgan asrning yetmishinchi yillarida "Hayrat ul-abror"ni o'rganish va targ'ib etish ehtiyoji yuzaga kelib, maxsus tadqiq etish uchun sharoit yetilgan edi. Aziz Qayumov mana shu adabiy-estetik ehtiyojni birinchilardan bo'lib anglab yetdi va o'zbek adabiyotshunosligida birinchi bo'lib "Hayrat ul-abror" talqini" nomli maxsus tadqiqot yozdi.

Aziz Qayumovning o'zi qayd etganidek, "Hayrat ul-abror" talqini" [Qayumov, 1977] nomli ushbu tadqiqotga qadar dostonning "mazmuni, undagi fikr va g'oyalar, obraz va personajlar tahliliga maxsus bag'ishlangan tadqiqot yaratilgan emas. Maxsus asarlar hozirgacha faqat "Hayrat ul-abror"ning ayrim nashrlariga yozilgan so'z boshi yoki so'nggi so'zdan iborat bo'lib keldi" [Qayumov, 2008; 9]. Mazkur tadqiqot esa

o‘zbek navoiyshunosligida ilk bora “Hayrat ul-abror”ning mazmuni, undagi asosiy fikr va g‘oyalar, obrazlar tahliliga bag‘ishlangan maxsus ish sifatida yuzaga keldi.

Tadqiqot quyidagi bob va fasllardan tashkil topgan:

1. Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni.

2. Hayrat ul-abror”ning muqaddimasi: (A) Ustozlar madhida; (B) So‘z va ko‘ngil; (D) Uch hayrat.

3. Maqolalar: (A) Sultonlar zikrida; (B) Riyoyi xirqapo‘shlar, zulmpesha amaldorlar; (D) Jahl mayiga nafrat; (E) Insoniy fazilatlar xazinasini; (F) Odamiy ersang...; (G) Aflok hay‘atidan shikoyatlar; (H) Umr fasllari; (I) Hayot qadri; (J) Vatan madhiyasi; (K) Turmush va ijod.

“Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni” nomli ilk bobda “Hayrat ul-abror”ning hajmi (3988 bayt), yozilgan vaqti (1483), qo‘lyozmalari haqida qimmatli ma‘lumotlar beriladi. Jumladan, olim Navoiy “Xamsa”sining bitgan qismlari peshma-pesh oqqa ko‘chirilganini aytar ekan, Abdujamil kotib ko‘chirgan bu nusxa Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida 5018 raqamli inventar bo‘lib saqlanishini aytadi. “Xamsa”ning Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan yana bir nodir qo‘lyozmasi Sankt-Peterburgda Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat kutubxonasida 560 raqamli inventar bo‘lib saqlanishini yozadi. Umuman, “Xamsa”ning Navoiy tirikligida ko‘chirilgan 4 qo‘lyozmasi bizgacha yetib kelgani, keyinchalik juda ko‘p ko‘chirilgani, birgina Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida “Xamsa”ning 74 ta qo‘lyozma nusxasi borligi aytiladi. Ushbu institutda “Hayrat ul-abror”ning alohida ko‘chirilgan XIX asrga oid 13 qo‘lyozmasi borligi qayd etiladi. Shundan so‘ng “Hayrat ul-abror” haqida yaratilgan eng muhim ishlar to‘g‘risida obzor berildi. Ushbu kitob “Hayrat ul-abror” mazmuni, badiiyatini ochib berishga qaratilgan ilk maxsus tadqiqot ekanligiga urg‘u beriladi.

“Hayrat ul-abror”ning muqaddimasi” nomli II bobda, asosan, ustozlar madhi, so‘z va ko‘ngil hamda uch hayratga oid boblar tavsiflanadi. Hamd va na‘tlar haqida ham mulohazalar bildiriladi. Navoiy ustozlarni madh etishga ahamiyat bergani, boshqa dostonlarida bo‘lganidek ularni tanqid etishga botinmagani topib aytiladi. “Uch hayrat” tahlilida Navoiy “iste‘dodli peyzaj ustasi” sifatida talqin etiladi.

“Maqolalar” nomli III bobda doston tarkibidagi sultonlar, riyokor darveshlar, zolim amaldorlar, o‘ziga bino qo‘ygan xunasalar, ilm toliblari, mayxo‘rlar, insoniy fazilatlar – karam, adab, qanoat, vafo, ishq, rostlik, ilm haqidagi boblar talqini o‘z ifodasini topgan. Olim ayniqsa insoniy fazilatlar haqidagi boblarni batafsil tahlilga tortadi. Jumladan, “Hayrat ul-abror”ning ko‘rib o‘tilgan yetti maqolati (V – XI) inson uchun zeb-u ziynat bo‘lmish fazilatlar xazinasidan iborat” [Qayumov, 2008; 105] deb yozadi. Odamiylik tasviri va talqini “shoir ijodiyotining timsoli” ekani haqidagi xulosaga to‘la qo‘shilish mumkin. Olimning Navoiy uslubida dalillash juda muhim o‘rin tutishiga oid qarashlari ilmiy jihatdan qimmatli [Qayumov, 2008; 79]. Qisqasi, “Hayrat ul-abror” boblar kesimida ko‘rib chiqildi, zamonaviy kitobxon boblar mazmuni bilan batafsil tanishtiriladi. Tez-tez asardagi voqealar qayta hikoya qilib beriladi. Ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma‘naviy masalalar talqiniga ko‘p e‘tibor qaratiladi. Olim fikrlarini ilmiy-ommabop yo‘sinda bayon qiladi. Davr mafkurasi ta‘siri mazkur

tadqiqotda bungacha yozilgan ishlarga nisbatan eng kam seziladi.

A.Qayumovning kitobi “Hayrat ul-abror”ga bag‘ishlangan ilk tadqiqot bo‘lgani bois unda asarning umumiy mazmun-mundarijasini ochib berish, Navoiyning badiiy tasvir va talqinda ko‘rsatgan mahoratini yoritishga ko‘proq e‘tibor qaratilgan. Qisqasi, ushbu tadqiqotga xos eng asosiy jihat umumiylik bo‘lib, olim har qanday masala talqiniga ana shu umumiylikdan kelib chiqib yondashadi.

MUNOZARA

Dastlabki tadqiqotga xos umumiylik keyingi tadqiqotlarga ta’sir o‘tkazdi. Sekin-asta “Hayrat ul-abror”ni o‘rganish jarayoni avvalgi tajribalarni sarhisob qilish, ixtisoslashish bosqichiga o‘ta boshladi. 1986-yili e‘lon qilingan “Alisher Navoiy “Xamsa”si” [Gafurjonova, 1986] nomli ilmiy maqolalar to‘plami mazkur jarayonning ilk jiddiy natijalaridan biri bo‘ldi. Mazkur to‘plamda mutafakkir dostonlaridagi estetik ideal muammosi, ijtimoiylik mohiyati, insonparvarlik va xalqchillik masalalari, “Xamsa” badiiyatining ayrim qirralari – obraz va xarakter yaratish mahorati, badiiy psixologizm tiplari, ba’zi poetik san’atlar tadqiq etiladi. Mazkur masalalar tadqiqi asnosida “Hayrat ul-abror” dostoniga ham murojaat etiladi.

Alisher Navoiy “Xamsa”siga bunday yondashuv “Hayrat ul-abror” tadqiqi jarayoniga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Boshqacha aytganda 80-yillarda adabiyotshunoslarda “Xamsa” dostonlarini konkret ilmiy muammo nuqtayi nazaridan tekshirish kayfiyati shakllandi. Biz xuddi shunday aniq va chuqur yondashuvni Salimjon Xidrnazarovning 1990-yili “Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni. Dosotonda tipologiya va poetik arxitektonika masalasi” [Xidrnazarov, 1990] mavzusidagi filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida uchramiz. Ushbu dissertatsiya “Hayrat ul-abror” dostonini Nizomiy, Xusrav va Jomiyning shu turkumdagi asarlari bilan qiyoslash orqali ularning “Hayrat ul-abror”ga ta’siri darajasini aniqlash, “Hayrat ul-abror”ning originalligini belgilash, o‘ziga xos poetik arxitektonikasini yoritish, Navoiyning she’riy hikoyat yaratish mahoratini ochib berish maqsadida yozilgan.

Dissertatsiyaning asosiy qismi III bobdan iborat. Birinchi bob “Hayrat ul-abror” dostonining arxitektonikasi (an’ana va yangilik)” deb nomlangan. Unda “Hayrat ul-abror” va shu turkumdagi dostonlardagi boblarni uch guruhga tasniflab o‘rganish muhimligi aytiladi: 1) ilova xarakteridagi boblar; 2) maqolatlar; 3) hikoyatlar [Xidrnazarov, 1990; 21].

S.Xidrnazarov “Ilova xarakteridagi boblar” deganda muqaddima va xotima tarkibidagi boblarni nazarda tutatdi. Qolgan ikki qismda esa asarlar tarkibidagi 20 maqolat va hikoyat e‘tiborga olinadi. Har to‘rt doston mana shu tasnif asosida qiyosiy ko‘rib chiqiladi. Garchi asarlar yuroqidagi kabi qismlardan tarkib topgan bo‘lsa ham, yagona g‘oyaviy-estetik konsepsiya ularni birlashtirishi, asarlarning markazida Inson masalasi turishi ta’kidlanadi. Navoiy o‘zigacha mavjud bo‘lgan “ilova xarakteridagi boblar” yaratish an’anasiga “Ko‘ngil ta’rifi” va “Uch hayrat” haqidagi yangi boblarni kiritib originallik namoyish etgani asoslanadi. Debocha va asosiy qism tarkibidagi boblar tavsif va muqoyasa qilinib, Navoiyning originalligi

ochib berishga harakat qilinadi.

Ikkinchi bob “Salafklar dostonlarining mazmun jihatidan ta’siri va “Hayrat ul-abror”ning originalligi” deb nomlangan. Bunda “Maxzan ul-asror”, “Matla ul-anvor” va “Tuhfat ul-ahror”ning “Hayrat ul-abror”da muhim o‘rin tutuvchi “jamiyatdagi sotsial guruhlarga munosabat” masalasi talqiniga ta’siri o‘rganiladi. Uch dostonning “Hayrat ul-abror”ga ta’siri masalasi juda katta ilmiy muammo ekani to‘g‘ri qayd etiladi va mazmuniy ta’sir faqat ijtimoiy guruhlar talqini doirasida yoritiladi. Shunga muvofiq shohlar, amaldorlar, xalq, keksalar (chol-u kampir), mehnatkashlar, riyokor shayxlar, karamlilar, ilm ahli, kotiblar, mayxo‘rlar haqidagi maqolat va hikoyatlar to‘rt doston misolida chog‘ishtiriladi. Har bir muallifning, xususan, Navoiyning ijodiy originalligi ko‘rsatib beriladi. Jumladan, “Matla ul-anvor” va “Tuhfat ul-ahror” so‘ngida keluvchi farzandga nasihatlar “Hayrat ul-abror”da valiahd Badiuzzaamonga pand-nasihatlar bilan almashtirilgani, bu Navoiyning an’anaviy bobga siyosiy-ijtimoiy salmoq berishni ko‘zlagani, doston realistik asoslarga tayanishidan dalolat berishi haqidagi tahlillar shu siraga mansub [Xidirnazarov, 1990].

Uchinchi bob “Alisher Navoiyning she’riy hikoyat yaratishdagi poetik mahorati” deb nomlangan. Bunda asosiy e’tibor “maqolatlarga illyustratsiya sifatida keltirilgan she’riy hikoyatlar dostonning poetik arxitektonikasida muhim rol o‘ynashi”ni ochib berishga hamda she’riy hikoyatlar sujet va obrazlarida xalq ruhi, xalqchilik namoyon bo‘lishini yoritishga qaratilgan. Olimning ushbu bobdagi hikoyachilikning Alisher Navoiygacha bo‘lgan rivoji haqidagi qarashlari e’tiborga molik. “Hayrat ul-abror” hikoyatlari g‘oyani isbotlash, bayonni jonlantirish vazifalarini bajarishi, muallifning asardagi yagona konsepsiyasining turli ko‘rinishlaridan biri ekani haqidagi mulohazalar ilmiy qimmatga ega. “Ikka vafoli yor” hikoyatining Amir Temurning hind yurishlari bilan bog‘lashi ham qiziqarli chiqqan [Xidirnazarov, 1990]. S.Xidirnazarov hikoyatlar tahliliga ham komparativistik yondashadi, Navoiyning hikoyanavis sifatidagi mahoratini ana shu asosda ko‘rsatishga intiladi: “Qo‘yilgan masalalarning aktualligi, ularning polisujetliligi, realistligi, originalligi, uslub yengilligi va tilining ravonligi bilan bu hikoyatlar salafklarning asarlaridagi hikoyatlardan farq qiladiki, bu sohada ham Navoiy o‘z navotorligini namoyish etgan” [Xidirnazarov, 1990; 123]. Muallif mazkur jihatlarga ko‘proq e’tibor qaratish, turli mavzudagi hikoyatlarni tadqiq etish orqali Alisher Navoiy she’riy hikoyatlar ustasi degan qarashni asoslaydi. Navoiy hikoyatlari sujet elementlari asosida o‘rganiladi.

Tadqiqot so‘ngida Nizomiyning “Maxzan ul-asror”, Amir Xusravning “Matla ul-anvor”, Jomiyning “Tuhfat ul-ahror” va Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonlari boblarining qiyosiy jadvali ilova qilingan (170–190-betlar).

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq Alisher Navoiy ijodini o‘z tabiati va asliyatiga mos ravishda tadqiq etish ishlari jiddiy odimlay boshladi. Ushbu tendensiya “Hayrat ul-abror”ni o‘rganish jarayoniga ham sezilarli ta’sir o‘tkazdi. Xususan, Muslihiddin Muhiddinov tomonidan 1995-yili himoya qilingan “Alisher Navoiy va uning salafklari ijodida inson konsepsiyasi” [Muhiddinov, 1995] (“Xamsa”larning birinchi dostonlari asosida) mavzusidagi dissertatsiya dostonni mazkur aspektda o‘rganishdagi ilk jiddiy qadamlardan biri bo‘ldi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi komil inson konsepsiyasining o'ziga xos talqinlarini xamsalarning birinchi dostonlari misolida qiyosiy yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotchi ushbu maqsadga erishish uchun II qism va 7 bob yozgan. I qism "Komil inson problemi va nabi-yu valilar siymosi" deb nomlangan bo'lib, u quyidagi to'rt bobdan tashkil topgan:

1-bob. Nizomiy, Amir Xusrav, Jomiy va Navoiy ijodida inson talqini.

2-bob. Hazrat payg'ambar siymosi tasviri.

3-bob. Dostonlarda ko'ngil timsoli.

4-bob. Valilar va so'fiylar siymosi.

II qism "Inson talqinida adabiy an'ana va ijodiy o'ziga xoslik" tarzida nomlangan bo'lib, u ham o'z ichiga quyidagi 3 bobni olgan:

1-bob. Inson axloqi tasviri.

2-bob. Inson va ijtimoiy muhit.

3-bob. Hayot va inson kamolati uchun kurash g'oyalari:

(a) so'z fazilati;

(b) muhabbat – poklovchi kuch;

(d) odamiylik ta'rifi va noodamiylik mazammati;

(e) dostonlarda qanoat masalasi.

Tadqiqotning tuzilishidan asosiy e'tibor komil inson tasviri va insoniy kamolat masalasining badiiy talqinlarini tekshirishga qaratilgani sezilib turadi. Boblarda qo'yilgan masalalar qiyosiy aspektda tadqiq etiladi, har bir xamsanavisning o'ziga xos yo'li ko'rsatib beriladi, ijodiy individuallikni aniqlashda asosiy e'tibor Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi qarashlarga qaratiladi. Barcha tahlillar orqali Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror"da komil inson masalasini qanday badiiy talqin etdi degan savolga javoblar izlanadi.

M.Muhiddinov xamsalarning birinchi dostonlarini "so'fiyona-falsafiy dostonlar" deb baholaydi va ushbu to'rt doston o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni yuzaga keltirgan omilni shunday izohlaydi: "Buyuk shoirlarni, avvalo, yaxshi inson fazilatlarini nimadan iborat, qanday qilib yaxshi odam bo'lish kerak, degan masalalar qiziqtirgan va har biri o'z kuzatishlarining natijasini ifodalagan. Shuning uchun "Maxzan ul-asror", "Matla ul-anvor", "Tuhfat ul-ahror" va "Hayrat ul-abror" mazmun-mundarijasiga, ko'tarilgan masalalariga ko'ra o'zaro yaqin jihatlarga ham, farqli tomonlarga ham ega" [Muhiddinov, 2021]. Muallif to'rt ijodkorning inson haqidagi qarashlarni umumlashtirib turgan yana bir jiddiy asos – islom ta'limoti ekanini ta'kidlaydi va aynan islom ta'limotining inson haqidagi qarashlaridan kelib chiqib xamsalarning ilk dostonlarida komil inson masalasi qanday tasvirlanganini tadqiq etadi. Inson kamoloti masalasi talqinidagi asosiy farq "ifoda va iborada» ekani juda to'g'ri qayd etiladi.

Xullas, komil inson konsepsiyasi dissertatsiyaning I qismida Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiy ijodidagi inson talqini, payg'ambar siymosi tasviri, ko'ngil timsoli, valilar va so'fiylar talqini muqoyasasi orqali ochib berilsa, II qismida inson axloqi tasviri, inson va ijtimoiy muhit, hayot va inson kamolati uchun kurash g'oyalari (so'z, muhabbat, odamiylik, qanoat) misolida yoritiladi. Mazkur masalalarni yoritishda boy va xilma-xil manbalarga murojaat etiladi. "Hayrat ul-abror" dostonidagi eng muhim

masala – komil inson konsepsiyasi chuqur va atroflicha asoslanadi. “Hayrat ul-abror” M.Muhiddinovning ushbu dissertatsiyasiga qadar tasavvuf ta’limoti kontekstida bu tariqa maxsus tadqiq etilmagan. Shu ma’nodagi, bu tadqiqot “Hayrat ul-abror”ni o’rganish sohasida tub burilish yasadi, dostoniga asl sharqona yondashuv xususiyatlarini qayta jonlantirdi va asarning mustaqillik davridagi talqinlari yo’nalishini belgilab berdi.

Yuqorida qayd etganimizdek, mustaqillik davrida Alisher Navoiy “Xamsa”si, xususan, “Hayrat ul-abror” dostonini asl tabiatiga mos ravishda o’rganish ishlari qayta jonlandi. Aftondil Erkinov 1998-yili himoya qilgan “Alisher Navoiy “Xamsa”si talqinining XV – XX asr manbalari” [Erkinov, 1998] mavzusidagi dissertatsiyasi bu boradagi jiddiy qadamlardan biri bo’ldi.

Muallif ushbu tadqiqotda Alisher Navoiy “Xamsa”sini germenevtika ta’limoti asosida o’rganish va germenevtik talqinlarni o’zida jamlagan manbalarni tizimli tadqiq etishni maqsad qilib olgan. “Xamsa” haqidagi talqinlarni alohida obekt sifatida o’rganib, sharqona talqinlarning o’ziga xos xususiyatlarini ko’rsatib bergan.

Tadqiqotchi bunda asosiy e’tiborni XV – XX asrlar mobaynida uchrovchi “Xamsa”ning Navoiy va zamondoshlari tomonidan qilingan talqinlari, tarixiy, memuar va badiiy asarlardagi qaydlar, “Xamsa”ning kitobat qilinishi, nusxalari, sharh va lug’atlari, badiiy talqinlari (nasriy bayonlari, miniaturalari, tarjimalari)ga qaratgan. Mazkur manbalardagi Navoiy “Xamsa”si, jumladan, “Hayrat ul-abror”ga oid talqinlarni tahlil etgan, talqinlar tarixini kuzatgan.

Navoiy “Xamsa”siga oid eski qarashlar ushbu tadqiqotga qadar turli yo’nalishlarda o’rganilgan, muayyan darajada tadqiq etilgan. A.Erkinov tadqiqotining ulardan farqi shundaki, ishda Navoiy “Xamsa”sining barcha eng muhim jabhalardagi: adabiyotshunoslik, lug’atchilik, manbashunoslik, matnshunoslik, san’atshunoslikdagi talqinlari yaxlit olib qaralgan va “Xamsa” talqinlarining muhim tarkibiy qismlari sifatida tekshirilgan.

Muallif “Xamsa”ga oid talqinlarni bir tizim sifatida oladi, asosan, Navoiy “Xamsa”siga oid umumiy talqinlarni yoritadi. Zarur o’rinlarda mavjud talqinlarni alohida dostonlar, jumladan, “Hayrat ul-abror” misolida ko’rsatib o’tadi. Navoiy “Xamsa”si talqinlariga oid umumiy fikrlar “Hayrat ul-abror”ga ham daxldorlik kasb etadi.

Tadqiqotning asosiy qismi V bobdan iborat. I bob “Alisher Navoiy “Xamsa”si talqini muammolari” deb ataladi. Uning ilk faslida badiiy matn talqini muammolari, talqin nazariyasi yoritilgan, islom mintaqasi adabiyotshunosligiga talqin masalasi o’rganilgan. Ushbu bobning uchinchi qismi bevosita mavzuga aloqador bo’lib, unda ushbu tadqiqot strukturasi tushunishga imkon beruvchi muhim qaydlar mavjud. Unda “Navoiy “Xamsa”si talqini muammo va manbalari”ga e’tibor qaratilgan. Muallif Navoiy “Xamsa”si talqinlari davrini ikki bosqichga bo’lib o’rganish mumkinligi qayd etiladi:

1. XV asrdan XX asr boshlarigacha bo’lgan bosqich.
2. XX asr boshlaridan bugungacha bo’lgan bosqich.

A.Erkinov ushbu bosqichlarning birinchisini shartli ravishda sharqona, ikkinchisini g’arbona yondashuv davri deb ataydi. Ikki davr oralig’idagi chorak asrlik

vaqtni esa o‘tish davri deb ko‘rsatadi [Erkinov, 2021; 38].

Muallif yana Navoiy “Xamsa”si yaratilganidan XX asrgacha bo‘lgan davrni yaxlit olib qarash zarurligini qayd etadi va mavjud talqinlarning manbalarini belgilab oladi. “Xamsa” talqinlari uch tomondan amalga oshirilganini yozadi:

- A) muallifning o‘zi (Navoiy);
- B) zamondoshlari (Jomiy, Husayn Boyqaro, Xondamir);
- D) keyingi davr kishilari (Bobur va boshqalar).

A. Erkinov Navoiy “Xamsa”si talqinlari manbalarini talqin jarayonidagi ishtiroki, qanday xarakterdagi fakt bera olishiga qarab quyidagicha tasnif qiladi:

1. Avtointerpretatsiya bilan bog‘liq qaydlarga ega manbalar.
2. Tarixiy, memuar, tazkira hamda badiiy asarlar.
3. Qo‘lyozmalardagi talqinlar.
4. Badiiy talqin manbalari [Erkinov, 2021; 47].

So‘ngra mana shu tasnifga asosan tahlillar amalga oshiriladi, ishning kompozitsiyasi yuqoridagi tasnif asosiga quriladi. Chunonchi, II bobda “Alisher Navoiy “Xamsa”sida avtointerpretatsiya muammosi va uning manbalari sistemasi tadqiqi”, III bobda “Navoiy “Xamsa”sining badiiy, ilmiy va tarixiy asarlardagi talqini manbalari”, IV bobda “Navoiy “Xamsa”sining qo‘lyozmalardagi talqiniy manbalari”, V bobda “Navoiy “Xamsa”sining badiiy talqini manbalari” tahlil etiladi.

Boblarda qo‘yilgan ilmiy muammolar tadqiqi asnosida “Hayrat ul-abror” dostoniga ham murojaat etiladi. Masalan, IV bobda Navoiy “Xamsa”sining muayyan hududda ko‘chirilish holati va davri to‘g‘risida tasavvur berish uchun “Xamsa” tarkibidagi dostonlar ko‘chirilishining regionlar kesimidagi statistikasi beriladi. So‘ngra ushbu statistika haqida shunday muhim xulosa taqdim etiladi: “Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “Hayrat ul-abror” dostoni nisbatan ko‘p ko‘chirilgan (18 marta – I.I.) ekan. Ushbu holatni shunday izohlash mumkin: Markaziy Osiyodagi uchta xonlikda bu davrda nisbatan madaniy-ma‘naviy yuksalish bo‘lganiga qaramay, falsafiy-so‘fiyona dostonlar o‘quvchilari doirasi toraygan. O‘tmish adabiyotini faqat ziyoli, ma‘lum tayyorgarlikka ega kitobxonlar qabul qilgan va talqin etgan. “Xamsa” dostonlarining tanlab kitobat etilishi kitobxon didi o‘zgarganidan darak beradi” [Erkinov, 2021; 108].

Muxtasar aytganda, A. Erkinov ushbu tadqiqoti bilan bizni “Hayrat ul-abror” talqinining XV – XX asrdagi manbalari, mazmun-mohiyati va tabiati bilan tanishtiradi. Ijodkorning dostoniga oid talqinidan tortib zamondoshlari, izdoshlari, hatto, san‘atshunoslik, matnshunoslikdagi talqinlari bilan yaqindan oshno qiladi. Bu esa “Hayrat ul-abror” talqiniga xos sharqona, asliyatga muvofiq talqin tendensiyasining dostonni tushunishdagi ahamiyati va zaruratini asoslashda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik davrida qayta jonlangan “Hayrat ul-abror”ni asliyatiga muvofiq tekshirish tendensiyasi sekin-asta kengayib, ilmiy-nazariy jihatdan chuqurlashib bordi. Endilikda butun boshli doston emas, uning muayyan qismlari – boblari bo‘yicha ham tadqiqot qilishga kirishildi. M. Imomnazarovning “Ko‘ngil haqida to‘rt doston sharhi” [Imomnazarov, 2015] nomli tadqiqoti bu jihatdan e‘tiborga molik. Ushbu

tadqiqotda “Maxzan ul-asror”, “Matla ul-anvor”, “Tuhfat ul-ahror” va “Hayrat ul-abror” dostonlaridagi ko‘ngilga oid boblar qiyosiy tahlil etilgan.

Muallif tadqiqotda, dastlab, “Maxzan ul-asror” tarkibiga kiritilgan dil (xoja) haqidagi besh bob xususida to‘xtaladi. Dil haqidagi ilk bob “Dilni tanish haqida” ekani, xilvat xabarchisining, dilning shoirga nasihatleri, tana a’zolarining sifatlanishi ochib beriladi [Imomnazarov, 2015]. Ikkinchi bob “Dil tarbiyati xususida birinchi xilvat” deb atalgani, unda Nizomiy tanani Misrga, dilni Yusufga o‘xshatib, dilning oshiqlik tarixini tasvirlagani yoritiladi. Ikkinchi xilvatda tungi majoziy ishrat bazmi tasvirlangani, majlisda dil ikki-uchta o‘zideklarni yig‘ib bazm qilishi, ushbu navbahordek anjumanning tong tufayli tarqashidan hasrat chekishi, bu hasratlar Nizomiyning qipchoq yori Ofoq haqidagi o‘kinchlarga ulanib ketishi tahlil etiladi. Nizomiy talqinlarini irfoniy jihatdan ham tushunish mumkinligiga ishora qilinadi [Imomnazarov, 2015]. Biroq negadir qolgan xilvatlar to‘g‘risida so‘z yuritilmaydi.

Tadqiqotning ikkinchi qismida Xusrav Dehlaviyning “Matla ul-anvor”ida kelgan dil haqidagi xilvatlar tahlilga tortiladi. Dostondagi birinchi xilvat bandalik shartlarini bajarish fazilati, tungi bedorlik va ibodat orqali dilni poklashning afzalligi xususida ekani, Dehlaviy masalani Nizomiyda bo‘lganidek murakkablashtirmasligi, bu xilvatda asosiy e’tiborni har ikki jahonga qo‘l siltab falak qushi bo‘lishga undashga qaratgani ochib beriladi. Ikkinchi xilvatda Dehlaviyning o‘z salafi bo‘lgan Nizomiy bilan majoziy uchrashuvi tasvirlangani, unda Dehlaviy o‘z ijodining Nizomiy ijodiga nisbatini bayon qilgani, u bilan qayg‘udosh ekani, har kim o‘z dardi, g‘amini kuylaganini aytgani ko‘rsatib berilgan. Uchinchi xilvatda Dehlaviyning o‘z piri Nizomiddin Avliyo bilan majoziy muloqatiga bag‘ishlangani, pir shoirning kelejagidan bashorat qilgani, hayot tashvishlariga e’tibor bermay, nurli tong sari ruhlantirgani yoritiladi. Shundan so‘ng Jomiyning “Tuhfat ul-ahror” dostoni tahliliga kirishiladi.

Jomiy “Tuhfat ul-ahror”da uch xilvat yozgan, lekin M.Imomnazarov tahlilni bu uch xilvatdan oldin bitilgan “Dil haqiqati yuzidan pardani ko‘tarmoq va dil sohibdil bag‘ridagina dil bo‘lishi bayonida” deb nomlangan bobdan boshlaydi. Bu bobda dilning mohiyati, dilga ega bo‘lishning shartlari badiiy talqin etilgani aytiladi. Jomiy salafaridan farqli ravishda ko‘ngil haqidagi samaralarni xilvat deb emas, balki suhbat deb atashi, birinchi suhbatda gumon va taxminlar zimistonida qolgan muridning ravshanzamir pir bilan ilk suhbat orqali ilm ul-yaqin davlatini qo‘lga kiritishi ifodalangani tushuntirilgan. Ikkinchi suhbatda murid ko‘zining tamkin sohibi bo‘lgan pir bilan suhbat orqali ayn ul-yaqin nuridan ravshanlashgani bayon qilingani ochib beriladi. Murid endi ayn ul-yaqin davlatini qo‘lga kiritadi. Murid pir bilan suhbat natijasida quyidagi xulosaga kelgani tadqiqotchi tomonidan juda to‘g‘ri ta’kidlanadi:

Kasrati surat zi sifot astu bas,
Asli hama vahdati zot astu bas.
Bahr yaki, mavj hazoron hazor,
Ro‘y yaki, oyinaho beshumor.

(Ma’nosi: Suvratlarning ko‘pligi (kasrat) sifatlardandandir, boshqa narsadan emas, hamma narsaning aslida bir zot (vahdat) turadi, boshqa narsa emas. Dengiz bitta, mavjlar esa ming-ming, Yuz yagona, ko‘zgular esa behisob) [Imomnazarov,

2015; 104].

Uchinchi suhbatda muridning haqiqatni ko‘rib turuvchi pir bilan suhbat orqali haq ul-yaqin gavharini qo‘lga kiritgani ta‘riflanadi. Murid “gavhar istab dengizga sho‘ng‘ib, o‘z gavharidan o‘zga gavhar topmagani, o‘zligini batamom yo‘qotgani” yaxshi ochib berilgan. M.Imomnazarov ushbu suhbatlardagi masalalar butunlay so‘fiyona talqinlarga tayanganini to‘g‘ri ko‘rsatadi [Imomnazarov, 2015; 105]. “Tuhfat ul-ahror”dagi uch suhbatning mazmuni haqida shunday umumlashma xulosa qiladi: “Shunday qilib, tasavvuf piri murshidi ko‘ngil tarbiyasi borasidagi uch suhbat davomida muridning pir ko‘magida “ilm ul-yaqin” (shariat), “ayn ul-yaqin” (tariqat), “haqq ul-yaqin” (haqiqat) bosqichlarini bosib o‘tib, ma‘naviy kamolotning yuksak bosqichiga ko‘tarilishini majoziy go‘zal lavhalarda gavdalantririb berishga erishadi” [Imomnazarov, 2015; 106]. Ammo ushbu xulosadagi ma‘rifatning uch darajasiga berilgan izohlar bahstabliligini ham qayd etish kerak.

Uch doston shu tariqa ko‘rib chiqilgach, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni tarkibidagi ko‘ngil haqidagi 4 bob tahliliga kirishiladi. Navoiyning ko‘ngil haqidagi qarashlari salaflari qarashlari bilan muqoyasa qilinadi. Navoiyning tasvirlari Jomiyning singari ikki ma‘nolilik xususiyatiga ega ekani, ko‘ngilning yaratilishidan boshlab tabiati, mohiyatigacha bo‘lgan tarixi tasvirlanishi ochib beriladi. Navoiy “irfoniy ko‘ngil” bilan “moddiy yurak”ni farqlagani tavsif qilinadi. Muallif shu o‘rinda Jomiy va Navoiyning ko‘ngil kamolatiga oid qarashlarini muqoyasa qilib, ular bir-biriga zid degan xulosaga keladi [Imomnazarov, 2015; 113]. Qayd etilishicha, Jomiy murid pir etagini tutmagunicha, maqsadga yeta olmaydi degan qarashni ifodalagan bo‘lsa, Navoiy “dunyoning barcha achchiq-chuchugini totmaguncha, ma‘naviy kamolatga erishuv mushkulligi”ni talqin etgan. Olim mazkur fikrlarga tayanib quyidagicha xulosa chiqaradi: “Jomiy suhbatalari bilan Navoiy hayratlari orasidagi farq “haqiqat tariqi” bilan “majoz tariqi” orasidagi jiddiy tafovutni va har birining o‘ziga xos yo‘lini yaqqol gavdalantriruvchi namuna deb qabul qilish ham mumkin” [Imomnazarov, 2015; 115]. Albatta, Jomiy masalaga tasavvuf nazaryotchisidek yondashadi, fikrlarini aniq ifodalab beradi, Navoiyda esa masala mohiyatini obrazlar orqali, badiiy tasvir bilan ifodalashga moyillik kuchli. Shu ma‘noda olimning bu fikrga qo‘shilish mumkin.

Ammo Navoiyning o‘zi “Ko‘ngil ta‘rifida...” bobida ko‘ngil kamolat sohibiga aylanishi haqida so‘zlar ekan, avvalo,

Topquncha ganjinayi asrorliq,

Ko‘p qilibon soliki atvorliq, –

deb yozadi. Ya‘ni ko‘ngil – ilohiy sirlar xazinasini topguncha, ma‘naviy riyozatlarga to‘la yo‘llarni bosib o‘tish kerak. Navoiy mana shu riyozat yo‘llari taxminan qanday kechishini tasvirlar ekan, tasvir so‘ngida shunday yozadi:

Gar etagin tutmoq emas dastras,

Tushsa Navoiy sari bir rishta bas.

Navoiy bu o‘rinda kamolatga erishish uchun ahli dil, ya‘ni sohibdil (orif) insonga ergashish zarurligi, agar unday insonni topib bo‘lmasa (Gar etagin tutmoq emas dastras), uning mujdasi, xabari ham kifoya qilishi haqida aytmoqda. Shu ma‘noda,

Navoiyning dil sohibi bo'lish haqidagi qarashlari mohiyatan Jomiy qarashlaridan farq qilmaydi, aksincha ular judayam uyg'un. Chunki Jomiy pir deganda, Navoiy sohibdil deganda bir shaxsni – Haqqa yetishgan, orif insonni nazarda tutadi. Har ikkisi dilga sohib bo'lish uchun sohibdil (orif) insonga ergashish muhimligini tasvirlashgan.

M.Imomnazarovning “Hayrat ul-abror” tarkibida kelgan ko'ngilning uchinchi hayratiga oid yana bir yangi talqinini e'tirof etish lozim. Olim ushbu tadqiqotning boshida musulmon mintaqadagi ma'naviy takomil bosqichlari – sunna bosqichi, musulmon ma'rifatchiligi bosqichi, irfon bosqichi haqida to'xtalar ekan irfon bosqichi bevosita Muhammad G'azzoliy qarashlari bilan bog'liqligini yozadi. Aynan Muhammad G'azzoliy aqlga tayanish tamoyili (ma'rifatchilik bosqichi) o'rniga ko'ngilni poklash tamoyilini joriy qilgani, bu – irfon bosqichi boshlanishining belgisi ekanini qayd etadi. G'azzoliy irfoniy qarashlarini bayon qilish asnosida birinchi marta “Kimyoyi saodat” asari muqaddimasida inson vujudida ko'ngil – podshoh, aql – vazir, degan g'oyani ilgari surgani ta'kidlanadi [Imomnazarov, 2015]. Olimning nuktadonligi shundaki, u tadqiqot boshida bejiz G'azzoliy irfon bosqichini boshlab berdi, u ko'ngil – shoh, aql – vazir degan g'oyani ilk bora ko'tarib chiqdi degan fikrlarga urg'u bermaydi. Bularning hammasidan muddao – ko'ngil haqidagi boblar, xususan, “Hayrat ul-abror”da kelgan ko'ngil haqidagi qarashlarda G'azzoliyning mazkur qarashi – ko'ngilni poklash tamoyili, ko'ngilni badanda shoh, aqlni esa vazir deb bilish aqidasi ta'siri borligini ochib berish edi. Olim Navoiyning “ko'ngil o'zligini tanigach, inson tanasidagi taxtni o'ziga maqom ayladi” degan badiiy tasviriga tayanib, shoirning bunday talqinlari G'azzoliy konsepsiyasi ta'sirida yaratilgan deb izohlaydi. M.Imomnazarov “Hayrat ul-abror”ni tahlil eta turib yozadi: “Inson badani shaharga (davr tushunchasi bo'yicha shahar – davlat nazarda tutiladi) o'xshatiladi. Uning o'z hukmdori, vaziri bor. E'tiborli joyi shundaki, hukmdor (shoh) mamlakat o'rtasidagi taxtda joylashgan bo'lsa, vazir eng tepadagi alohida gumbaz qasrda o'tiradi. Bu ramziy tasvirda G'azzoliy olg'a surgan “ko'ngil – podshoh, aql – vazir” g'oyasi aniq ifodasini topgan” [Imomnazarov, 2015; 120]. Aytish mumkinki, bu – “Hayrat ul-abror”dagi uchinchi hayrat haqidagi mavjud tadqiqotlarga nisbatan eng oxorli talqin. Olimning masalaga bunday genetik yondashuvlari ilmiy ahamiyatga molik.

Mustaqillik davrida “Hayrat ul-abror”ni muayyan muammo nuqtayi nazaridan o'rganish, ixtisoslashish ham kuchayib bormoqda. Jumladan, Nigora Sharipovanning “Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni poetikasi” [Sharipova, 2021] mavzusidagi dissertatsiyasi ana shunday tadqiqotlar sirasiga kiradi. Ushbu tadqiqot Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni poetikasini, shoirning o'z salaflari ilk dostoniga munosabatini aniqlash, doston strukturasi, sujeti, kompozitsiyasi, obrazlar va hikoyatlar genezisi, vazn hamda qofiya masalalari, g'oyaviy-semantik, leksik-stilistik xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan ochib berish maqsadida yozilgan.

Dissertatsiya III bobdan iborat bo'lib, I bobda “Hayrat ul-abror” dostonida Navoiyning o'z salaflariga munosabati hamda dostonning strukturasi o'rganilgan. II bobda “Hayrat ul-abror”ning sujeti va obrazlar tizimi hamda hikoyatlarning doston tarkibida tutgan o'rni tahlil etilgan. III bobda esa “Hayrat ul-abror”ning vazni, qofiyasi, tili va uslubi ko'zdan kechirilgan.

Ushbu tadqiqotdagi asosiy holatlardan biri “Hayrat ul-abror”ning “Xamsa” tarkibidagi boshqa dostonlarga nisbatan muqaddimalik tabiatiga egaligi, uning keyingi dostonlarga singib keng ko‘lamli sujet hosil qilgani haqidagi qarashni asoslashga intilishdir. Tadqiqotchi yozadi: “Hayrat ul-abror” “Xamsa” dostonlari uchun o‘ziga xos poydevor vazifasini bajargan. Xuddi maqolaning tezisi kabi butun “Xamsa” mohiyati aslida javhar sifatida ilk dostonda mujassam” [Sharipova, 2021; 63]. Kezi kelganda qayd etish kerakki, dostonga bunday yondashish juda ham asosli emas, qolaversa, bunday yondashuv avvalgi tadqiqotlarda ham mavjud edi, lekin tadqiqotchining ularni takrorlamaslikka harakat qilgani ahamiyatga molik.

Yana bir e‘tiborli holat dostondagi hamd, munojot, na‘t va hayrat boblarining “kirish boblar”, “muqaddimaviy boblar” emas, aksincha g‘oyaviy-badiiy markazni tashkil etuvchi boblar ekanligini ko‘rsatib berishga intilishdir. Darhaqiqat, shunday. Mazkur boblar “Hayrat ul-abror”ning mazmun-mundarijasini, kompozitsiyasini shakllantirish xususiyatiga ega. Tadqiqotchi bu jihatni yaxshi ilg‘agan.

N.Sharipova dostonda umumiy sujet bor deb hisoblaydi va uni shakllantirishda muallif obrazi birlashtiruvchi, boshqaruvchi vazifalarini bajaradi degan qarashni ilgari suradi. Obrazlar ham ana o‘sha umumiy sujet va kompozitsiyaga muvofiq tasvirlanadi, harakatlanadi, degan fikrga qo‘shiladi. Tadqiqotchi ushbu masala talqinida ko‘proq N.Mallayevga tayanadi. Tahlillarda M.Shayxzoda, M.Muhiddinov, U.Jo‘raqulov tadqiqotlarining ta‘siri sezilib turadi. Muallif dostonning obrazlar tizimini an‘anaviy tarzda uch guruhga tasnif qiladi:

birinchisi – dostonning bosh qahramoni Navoiyning o‘zi;

ikkinchisi – maqolatgacha bo‘lgan boblar va maqolatlardagi tavsifiy obrazlar – portret va karakterlar;

uchinchi – hikoyat va masallardagi epik obrazlar [Sharipova, 2021; 67].

Tadqiqotchi dostonning umumiy sujeti deganda ijodkorning qarashlarini nazarda tutadi va aynan muallifning qarashlari (muallif obrazi) tarqoqdek ko‘rinuvchi boblar va ulardagi qahramonlarni bir tizimga birlashtirib turadi degan fikr ta‘kidlanadi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqotda “Hayrat ul-abror” dostoni kompleks ko‘rib chiqishga harakat qilingan. Ham an‘anaviy, ham zamonaviy yondashuvlar sintezlangan. Tadqiqotchi ko‘proq mavjud tadqiqotlardan ruhlangan va o‘z mulohazalarini ifodalashga harakat qilgan.

Hozirda “Hayrat ul-abror”ni qiyosiy aspektda o‘rganish ishlari yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Avvalari ham doston qiyosiy yo‘sinda o‘rganilgan, lekin ularda “Hayrat ul-abror”, asosan, shu turkumdagi barcha dostonlar bilan muqoyasa qilingan. Bunday keng qamrov, tabiiyki, kichik va tor jihatlar haqida xulosa berishdan mahrum qilgan. “Hayrat ul-abror”ni komparativistik aspektda o‘rganishga oid zamonaviy tadqiqotlarda esa chuqurlashish, ixtisoslashish tendensiyasi ko‘zga tashlanadi. Ana shunday ishlardan biri Dilrabo Nazarovanning “Abdurahmon Jomiyning “Subhat ul-abror” va Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonlarining qiyosiy tahlili” [Nazarova, 2022] mavzusidagi dissertatsiyasidir.

Ushbu dissertatsiyada asosiy e‘tibor Jomiyning “Subhat ul-abror” dostoni mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqot uch bobdan tashkil topgan.

I bob “Xamsanavislik an’anasi va Jomiyning novatorligi” deb atalgan bo‘lib, unda XV asrdagi an’ana va novatorlik mezonlari, temuriylar davridagi xamsanavislik, abrorlar maslagi, Jomiy “Xamsa”sining g‘oyaviy-badiiy mundarijasi tahlil etilgan. II bob “Subhat ul-abror” va “Hayrat ul-abror”dagi muqaddima boblarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda basmala boblar, hamd, munojot va na‘t boblar, bag‘ishlov boblari qiyosiy o‘rganilgan. III bob “Subhat ul-abror” dostonidagi tushuncha va tamoyillarning qiyosiy tahlili” deb nomlangan bo‘lib, unda har ikki dostonidagi iqdalar, tasavvufiy istilohlar, go‘zal xulqlarning irfoniy talqinlari, shaxs va jamiyat munosabati yoritilgan.

Ushbu tadqiqotga qadar “Hayrat ul-abror” va “Subhat ul-abror” muayyan darajada, biror masala asnosida muqoyasa qilingan bo‘lsa-da, qiyosiy aspektda maxsus tadqiq etilmagan edi. Bu – ushbu tadqiqotning yangiligiga dalolat qiluvchi muhim nuqtalardan biridir. Ishning aksar fasllarida an’anaviy yondashuvga guvoh bo‘lsak-da, ayrim boblarda tadqiqotchining yangicha yondashuvi, original ko‘zqarashi yuzaga chiqqan. Jumladan, dastlabki bobning “Abrorlar maslagi: tarix va ta’rif” deb nomlangan uchinchi faslida tadqiqotchi bu faslda abrorlikning mazmunini o‘rgana turib “Abrorlik – Haq taolaga qurbat hosil qiluvchi hamda uning roziligiga sabab bo‘luvchi amallar tufayli erishiladigan maqomdir” [Nazarova, 2022; 29] degan to‘xtamga keladi.

Tadqiqotchi abror so‘zining ham lug‘aviy, ham istilohiy ma’nolarini astoydil o‘rganib “Manbalarda berilgan ta’riflar umumlashtirilsa, tasavvufiy atama o‘laroq shakllangan abror tushunchasining ildizi Qur’oni karimdagi oyatlarga borib taqaladi. Ilohiy kalomda turli shaklda 20 marta qo‘llanilgan ushbu so‘z jannat ahlining sifatlaridan biri, valiysifat zotlarning ta’rifi, basirat ko‘zi ochiq, qalbi imon nuri bilan munavvar zotlarga nisbatan qo‘llanilgan. Valilik nazariyasida esa abrorlarning maqomi turlicha darajada belgilangan. Umumiy hisobda, abrorlar valiylar toifasining biri bo‘lib, boshqa valiysifat zotlardan asosiy farqi – faqat o‘z nafsining tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lmay, balki dunyoning obodonligi va el-yurt farovonligi uchun ham sa’y-harakat qiladilar” tarzida umumlashma qilishga erishadi [Nazarova, 2022, 32]. Ahamiyatli tomoni shundaki, D.Nazarova mana shunday xulosalar orqali Jomiy “Subhat ul-abror”da va Navoiy “Hayrat ul-abror”da abror maslagi – konsepsiyasini badiiy talqin etganini asoslashga harakat qiladi va bunga muayyan darajada erishadi ham. Tadqiqotchining “Naqshbandiylik ta’limotining “Dil bay or-u dast ba kor” shioriga hamohang kun kechiradigan abrorlarning maslagini talqin qilishda Navoiy va Jomiyning talqinlari mushtaraklik kasb etadi” [Nazarova, 2022, 119] kabi xulosalari “Hayrat ul-abror”ni o‘rganish jarayonida ancha ohorli qarash bo‘ldi deyish mumkin. Chunki bunga qadar mavjud tadqiqotlarda “Hayrat ul-abror” abror maslagidan kelib chiqib tahlil etilgan jiddiy tadqiqot uchramaydi. Qolaversa, ushbu tadqiqotda avvalo ikki dostonida badiiy talqin etilgan abrorlik maslagini ochib berish maqsad qilingan. Masalaning bu tarzda qo‘yilishining o‘ziyoq “Hayrat ul-abror”ni o‘rganish jarayonidagi muhim o‘zgarishlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Mustaqillik davri bergan imkoniyatlar va ayni shu davrda shakllangan adabiy merosni asliyatga muvofiq tadqiq etish tendensiyasi “Hayrat ul-abror”ni o‘rganish

miqyoslari kengayishiga olib keldi. Dastlab batafsil izohlash maqsadi bilan qayta tiklangan Navoiy ijodini sharhlash yoʻnalishi shoir gʻazallariga samarali tatbiq etildi. Bu borada ancha-muncha ishlar qilindi. Hozirda zamonaviy mutaxassislar nafaqat kichik lirik janrlarni, balki Navoiyning yirik dostonlarini ham sharhlashga harakat qilmoqda. Akrom Malik tomonidan tayyorlangan “Hayrat ul-abror” nasriy bayoni va sharhi [Navoiy, 2024] mana shu jabhadagi eʼtiborga molik ishlardan boʻldi.

Sh.Sirojiddinov ushbu tadqiqotga yozgan soʻzboshisida tadqiqotning asosiy yangiligini shunday koʻrsatadi: “Hayrat ul-abror” yurtimizda bir necha bor chop qilingan. Ustoz navoiyshunoslar tomonidan nasriy bayoni ham nashr etilgan. Ularda asarning gʻoyaviy mazmun-mohiyati tarbiyaviy jihatlarini hisobga olib zohiriy sharhlangan. Biroq baytlarning qaʼrida yashirin yotgan gʻayb sir-sinoatlari sharhi hali amalga oshirilmagan edi. Akrom Malik ushbu asarning yangi sharhiga kirishib, ulugʻ navoiyshunos olimlarimiz uchun armon boʻlib qolgan muhim boʻshliqni toʻldirishga harakat qilgan” [Navoiy, 2024; 8]. Bu ish Navoiy “Xamsa”si sharhiga oid ilk tajriba ekanini shorihning oʻzi ham qayd etgan [Navoiy, 2024; 11].

Ushbu tadqiqot-nashr quyidagi qismlardan tarkib topgan:

- 1) “Hayrat ul-abror”ga kirish;
- 2) “Hayrat ul-abror” dostonining Porsoxon Shamsiyev tomonidan tayyorlangan tanqidiy matni;
- 3) “Hayrat ul-abror” dostonining muxtasar sharhi;
- 4) ilovalar:
 - a) “Hayrat ul-abror” dostoni matnining nasriy bayoni;
 - b) “Hayrat ul-abror” dostoni matnida uchrovchi ayrim soʻzlar lugʻati;
 - d) koʻrsatkichlar (tarixiy shaxslar, suralar, asarlar, hayvon, hasharot, qush, oʻsimliklar, sayyorlar, yulduzlar, shershunoslik istilohlari, joy, diniy nomlar);
 - e) foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish ancha batafsil yozilgan. Unda “Hayrat ul-abror” bobma-bob qisqacha tavsiflab chiqiladi. Oʻquvchi dostonning mazmun-mundariyasi bilan tanishtiriladi.

Asosiy qismda har bir sahifa ikki boʻlakka ajratilgan. Yuqori qismda matn, quyi qismda esa sharh joylashtirilgan. Yuqori qismdagi matn krill va arab grafikalarida berilgan. Kitob nashrida Alisher Navoiy ijodiga xos muhtashamlarni aks ettirishga astoydil harakat qilingan.

Mazkur sharh, masʼul muharrir taʼkidlaganidek, muxtasar xarakterga ega. U oʻzbek adabiyotshunosligida shu paytgacha mavjud boʻlgan sharhchilik anʼanasining samarasi va davomi sifatida yuzaga keldi. “Hayrat ul-abror”ni sharhlash yoʻlidagi ilk tajriba hisoblanadi. U oʻzidan avvalgi sharhlash tajribasiga tayanib yaratildi. “Shorih Qurʼoni karim oyatlari, hadis shariflar va buyuk mutafakkirlarimizning bitiklaridan iqtiboslar keltirish orqali Hazrat baytlari zamiridagi maʼnolarni tasdiqlashda ancha mahorat koʻrsatgan” [Navoiy, 2024; 10]. Mumtoz matnni yaxshi his qilgan, misralar qatidagi mazmundorlikni aksar oʻrinda toʻgʻri ilgʻagan. Matndagi maʼnolar ham zohiriy, ham botiniy jihatdan izohlangan, tushuntirilgan. Talqinlarda didaktik ruh, kayfiyat yetakchilik qilgan. U “Hayrat ul-abror” haqidagi boshqa tadqiqotlardan farqli ravishda asardagi muayyan masala yoki jihatning tadqiqiga emas, balki dostonni

butun qamrovi bilan, tagma'nolari bilan kompleks yoritishga qaratilgan.

Ilovalar qismida dastlab doston matnining izohli nasriy bayoni berilgan. Nasriy bayon puxta tayyorlangan. Bu qismda tadqiqotchining mahorati yaxshi namoyon bo'lgan.

“Hayrat ul-abror” matnida uchrovchi ayrim kamyob va arabiy so‘zlar izohlangan, tanlangan so‘zlar ham krill, ham arab grafikasida berilgan. Bu – nashrda akademik talablarga rioya etilganini ko‘rsatadi. Ko‘rsatkichlar va foydalanilgan adabiyotlar ham ana o‘sha akademiz yuzaga chiqishini ta‘minlagan.

Ushbu tadqiqot-nashr, umuman olganda, yaxshi chiqqan. Biroq unda mulohazatalab o‘rinlar ham yo‘q emas. Aytaylik, basmala bob diniy motivlar bilan batafsil izohlansa-da, ushbu bob “Xamsa” degan badiiy majmuaning boshiga nima uchun kiritilgan, bu bob badiiy asarlar to‘plami bo‘lgan “Xamsa”ning umumiy kompozitsiyasida qanday poetik vazifa bajaradi degan savollarga jo‘yali javob berilmaydi. Ishda ifodalangan tavsif va sharhlardagi ayrim talqinlar ham bahsli. Lekin hozir bu borada chuqurlashmaymiz, chunki bu alohida bir masala. Umumiy xarakterga ega mulohazalarning ayrimlarini bildirish bilan cheklanamiz.

Avvalo shuni qayd etish kerakki, bir kitobda bir matnga turli rakurslardan yondashish yaxshidek ko‘rinsa-da, tig‘izlikni, takroni yuzaga keltirgandek. Bir asarning tanqidiy matni, uning krill garafikasidagi tabdili va ana o‘sha matnning sharhi bor joyda yana nasriy bayonning berilishi “bu nima uchun kerak edi?” degan savolni paydo qilishi tabiiy. Qolaversa, kitobning kirishida dostonning bobmabob tavsiflanishi ilovadagi nasriy bayonning qaytarig‘iga o‘xshab qolgan. Kirish tadqiqotda dostonning umumiy jihatlari haqida tahliliy xulosalarni berish zarur edi. Hozirgi holatda kitobning kirish qismi ilova tarkibidagi nasriy bayonning muxtasari bo‘lib qolgan, bu esa deyarli takror demakdir.

Sharh muallifi yordamchi manbalarga u qadar faol murojaat etmaydi. Asosan, Qur‘on va hadislariga tayanadi. Ba‘zan tasavvuf lug‘atlari, boshqa diniy manbalarga murojaat etadi. E‘tiborli tomoni shundaki, murojaat etilgan manbalarning aksari diniy xarakterga ega. Chunki sharhda diniy-tasavvufiy, ma‘rifiy talqin ustuvorlik kasb etgan. Adabiy manabalar, badiiy asarlar sharhiga juda kam e‘tibor qaratilgan. Xamsachilik an‘anasidagi asarlar sharhiga oid mavjud ishlarga deyarli murojaat etilmagan. Badiiyat masalalariga kam ahamiyat berilgan. Bunday yondashuv alaloqibat Navoiy siymosi ijodkor, adib emas, ko‘proq nasihatgo‘y, mutasavvuf sifatida gavdalanib qolishiga olib kelgan. Bizningcha, Navoiy asarlari sharhida ma‘rifiy talqin bilan badiiy talqin muvozanatini ta‘minlash maqsadga muvofiq. Bunday kamchiliklar ishning bu boradagi ilk tajribalardan ekani bilan bog‘liq, albatta. Shunga qaramay “Hayrat ul-abror” (tanqidiy matn, sharh, nasriy bayon va lug‘at) tadqiqoti e‘tirofqa sazovor. U “Hayrat ul-abror”ni o‘rganish va kashf etish jarayoniga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

“Hayrat ul-abror”ga bag‘ishlangan yana bir necha xorijiy tadqiqotlar mavjud, ular bilan ham tanishish asarning o‘rganilish manzarasi haqida tasavvurlarni yanada to‘ldirishga xizmat qiladi.

Mavjud tadqiqotlarda zamon, mafkura, saviya va ijodiy maqsad o‘z izini qoldirgan. Ularning hammasini bir ezgu niyat – “Hayrat ul-abror” kashf etish, anglatish

birlashtirib tursa-da, bu niyatning ijrosi har safar o‘zgacha kechgan [Bu haqda qarang: Erkinov, 2021].

XULOSA

Shu tariqa “Hayrat ul-abror” Navoiy zamonidan boshlab turli aspektlarda tadqiq etib kelinmoqda. Shu ma’nodda “Hayrat ul-abror” dostonining o‘rganilish tarixi Alisher Navoiyning o‘z talqinlaridan boshlanadi, keyinchalik shoirning zamondoshlari va izdoshlari “Xamsa” bahonasida ijobiy fikrlar bildirishgan.

Asarning o‘rganilish dinamikasi, jarayoni dastlab jadal kechgan bo‘lsa, XVIII asrdan XX asr boshlarigacha ancha sust kechgan. Bu davrda muayyan nasriy bayonlardan boshqa jiddiy izlanishlar, tahlillar uchramaydi.

“Hayrat ul-abror”ni tadqiq etish jarayoni XX asr boshlarida qayta jonlandi. Dostonni zamonaviy ilmiy mezonlar asosida tadqiq etish XX asr boshlari, aniqrog‘i, XX asrning o‘ttizinchi yillariga to‘g‘ri keldi. Bu boradagi ishlar Abdurauf Fitratning “Adabiyot namunalari”dan boshlandi. Shundan so‘ng birin-ketin Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid ishlar tarkibida dostonga oid fikr-mulohazalar bildirildi. O.Sharafiddinov, S.Ayniy, Oybek, Uyg‘un, M.Shayxzoda, Y.E. Bertels, O.S. Lavand, N.Mallayev kabi olimlar dostonni o‘rganishning ayni bosqichi vakillari hisoblanadilar. Bu bosqichga xos eng umumiy xususiyat “Hayrat ul-abror”ga muayyan masala, xususan, Alisher Navoiy hayoti va adabiy merosini yoritish asnosida murojaat etishdir. Lekin bu davrda M.Shayxzoda kabi olimlar tomonidan alohida maqolalar ham yozildi, ular teran mazmuni bilan ajralib turadi.

“Hayrat ul-abror”ni maxsus tadqiq etish XX asrning yetmishinchi yillaridan boshlandi. Bu jarayonni A.Qayumov “Hayrat ul-abror” talqini” monografiyasi bilan boshlab berdi. Qayd etish kerakki, XX asrdagi tadqiqotlarda asosiy e’tibor dostonning ijtimoiy-siyosiy qatlamini tahlil etishga qaratildi. Ularda mafkura va davr ruhi sezilib turadi.

XX asrdagi tadqiqotlardan farqli ravishda mustaqillik davridan boshlab dostonni sharqona madaniyat va ma’naviyat kontekstida tadqiq etish, irfoniy-ma’rifiy talqin etishga katta e’tibor qaratildi. Bu jarayon M.Muhiddinov tadqiqotlari bilan boshlandi.

Bugungi kunda “Hayrat ul-abror”ni o‘rganish jarayoniga sinkretik yondashuv xos bo‘lib, ularda yaqqol ajralib turgan tendensiya kuzatilmaydi. Lekin bu jarayonda tasavvufiy-ma’rifiy talqin, poetik tahlil, lingvistik tahlil va komparativistik yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu zamonaviy navoiyshunoslikning ham nisbatan faol yo‘nalishlari deyish mumkin. Sohaning keyingi rivoji ham ko‘proq mana shu aspektlarda kechishi ehtimoldan yiroq emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov, A. (1998). *Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti (Vahdat ul-vujud problemi bo‘yicha)*. *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti.
2. Abdug‘afurov, A. (1995). *Buyuk beshlik saboqlari*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.
3. Ayniy, S. (1967). *Maqolalar: asarlar* (8-t., A.Rustamov & R.Komilov (Muhrl.)). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti.
4. Bertels, Y.E. (2015). *Navoiy* (I.Mirzayev (Tarj.)). Toshkent: Tafakkur qanoti.

5. Erkinov, A.S. (1998). Alisher Navoiy «Xamsa»si talqinining XV–XX asr manbalari. *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti .
6. Erkinov, A.S. (2021). *Alisher Navoiy “Xamsa”si talqini manbalari (XV–XX asr boshi)* (30 j., 19-j.). Toshkent: Tamaddun.
7. Fitrat, A. (2013). *O‘zbek adabiyoti namunalari* (1-j.). Toshkent: Mumtoz so‘z.
8. Gafurjonova, T. (Nashr. tayyorl.). (1986). *Alisher Navoiy “Xamsa”si: tadqiqotlar.* Toshkent: Fan.
9. Hayitmetov, A. (1963). *Navoiyning ijodiy metodi masalalari.* Toshkent: Fan.
10. Imomnazarov, M. (2015). *Navoiyshunoslikka kirish.* Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti.
11. Ismoilov, I. (2025). Abror hayrati. *Alisher Navoiy va XXI asr mavzusidagi 10-xalqaro ilmiy konferensiya materiallari* (B. 226–229). Toshkent – Chimkent: J.Tashenov nomidagi universitet.
12. Jalolov, T. (1968). *“Xamsa” talqinlari.* Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.
13. Jo‘raqulov, U. (2017). Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi. *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti.
14. *Levend, A.S. (1965). Ali Şir Nevayi.Yaşami-Sanati-Kişiliği (C. 1). Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi.*
15. *Levend, A.S. (1967). Ali Şir Nevayi. Hamse (C. 3). Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi.*
16. Mallayev, N. (1976). *O‘zbek adabiyoti tarixi* (1-k.). Toshkent: O‘qituvchi.
17. Mallayev, N. (1980). *Navoiy ijodiyotining xalqchil negizi.* Toshkent: O‘qituvchi.
18. Muhiddinov, M. (1995). Alisher Navoiy va uning salafllari ijodida inson konsepsiyasi. *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti.
19. Navoiy, A. (1960). *Xamsa* (P.Shamsiyev (nashr. tayyorl.). Toshkent: O‘zFA nashriyoti.
20. Navoiy, A. (1991). *Hayrat ul-abror* (20 tom., 7-t.). Toshkent: Fan.
21. Navoiy, A. (2000). *Muhokamat ul-lug‘atayn* (16-t.). Toshkent: Fan.
22. Navoiy, A. (2024). *Hayrat ul-abror: tanqidiy matn, sharh* (A.Malik (Nashr. tayyorl.)). Toshkent: Tavfiqnashr.
23. Nazarova, D. (2022). Abdurahmon Jomiyning “Subhat ul-abror” va Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonlarining qiyosiy tahlili. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Samarqand: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.
24. Oybek, M.T. (1967). *Navoiy gulshani.* Toshkent: Fan.
25. Oybek, M.T. (1979). *“Xamsa”ning asosiy obrazlari* (19 t., 13-j.). Toshkent: Fan.
26. Qayumov, A. (1977). *“Hayrat ul-abror” talqini.* Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.
27. Qayumov, A. (2008). *“Hayrat ul-abror” talqini* (1-j.). Toshkent: Mumtoz so‘z.
28. Sirojiddinov, Sh. (1997). *XV–XVI asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini.* Samarqand: Zarafshon.
29. Sirojiddinov, Sh. (1998). Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga oid XV–XIX asrlarda yaratilgan fors-tojik manbalari: qiyosiy-tipologik-tekstologik tahlil. *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti.
30. Valixojayev, B., & Vohidov, R. (1981). *Navoiy ijodi – ilhom manbayi.* Toshkent: Fan.
31. Xayitmetov, A. (Muhr.). (1977). *O‘zbek adabiyoti tarixi: XV asrning ikkinchi yarmi* (5 t., 2-t.). Toshkent: Fan.
32. Xidrnazarov, S. (1990). Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni. Dostonda tipologiya va poetik arxitektonika masalasi. *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent: A.S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti.
33. Yusupova, D. (2011). *Alisher Navoiy «Xamsa»sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi.* Toshkent: Mumtoz so‘z.
34. G‘anixojayeva, N. (1967). Alisher Navoiy – hikoyanavis (“Xamsa” materiallari asosida). *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent: Til va adabiyot instituti.

35. Sharafiddinov, O. (1971). *Alisher Navoiy (hayoti va ijodi)*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti.
36. Sharipova, N. (2021). Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni poetikasi. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Samarqand: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.
37. Shayxzoda, M. (1972). *G'azal mulkining sultoni* (4-t.). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

REFERENCES

1. Abdugafurov, A. (1995). *Lessons of the Great Five*. Tashkent: Publishing House of Literature and Art named after Gafur Gulom.
2. Abduqodirov, A. (1998). Sufism and the works of Alisher Navo'i (On the problem of wahdat al-wujud). *DSc thes. philol.* Tashkent: Alisher Navo'i Institute of Literature.
3. Aini, S. (1967). *Articles: Collected works* (Vol. 8, A.Rustamov & R.Komilov, Eds.). Tashkent: Fiction Publishing House named after Gafur Gulom.
4. Bertels, Y.E. (2015). *Navo'i* (I.Mirzayev, Transl.). Tashkent: The Wing of Reflection.
5. Erkinov, A.S. (1998). Interpretations of Alisher Navo'i's "Khamsa" in sources of the 15th–20th centuries. *DSc thes. philol.* Tashkent: Alisher Navo'i Institute of Literature.
6. Erkinov, A.S. (2021). *Sources of interpretation of Alisher Navo'i's "Khamsa" (15th–early 20th centuries)* (Vol. 30, Book 19). Tashkent: Civilization.
7. Fitrat, A. (2013). *Samples of Uzbek literature* (Vol. 1). Tashkent: Classic Word.
8. Gafurjonova, T. (Ed.). (1986). *Alisher Navo'i's "Khamsa": Studies*. Tashkent: Science.
9. Ganikhoyayeva, N. (1967). Alisher Navo'i as a storyteller (Based on the "Khamsa"). *Cand. diss. philol. scien.* Tashkent: Institute of Language and Literature.
10. Imomnazarov, M. (2015). *Introduction to Navo'i studies*. Tashkent: Tashkent State Institute of Oriental Studies.
11. Ismoilov, I. (2025). The wonder of Abror. In *Proceedings of the 10th International Scientific Conference "Alisher Navo'i and the 21st Century"* (pp. 226–229). Tashkent–Shymkent: J.Tashenov University.
12. Jalolov, T. (1968). *Interpretations of the "Khamsa"*. Tashkent: Publishing House of Literature and Art named after Gafur Gulom.
13. Juraqulov, U. (2017). Chronotope poetics in Alisher Navo'i's "Khamsa". *DSc thes. philol.* Tashkent: Alisher Navo'i Institute of Language and Literature.
14. Khayitmetov, A. (1963). *Issues of Navo'i's creative method*. Tashkent: Science.
15. Khayitmetov, A. (Ed.). (1977). *History of Uzbek literature: Second half of the 15th century* (Vol. 5, Book 2). Tashkent: Science.
16. Khidirnazarov, S. (1990). The poem "Khayrat al-abror" by Alisher Navo'i: Problems of typology and poetic architectonics. *Cand. diss. philol. scien.* Tashkent: Institute of Language and Literature named after A.S. Pushkin.
17. Levend, A.S. (1965). *Alisher Navo'i: His life, art, and personality* (Vol. 1). Ankara: Turkish Historical Society Press.
18. Levend, A.S. (1967). *Alisher Navo'i: Khamsa* (Vol. 3). Ankara: Turkish Historical Society Press.
19. Mallayev, N. (1976). *History of Uzbek literature* (Part 1). Tashkent: Teacher.
20. Mallayev, N. (1980). *The popular foundations of Navo'i's creativity*. Tashkent: Teacher.
21. Muhiddinov, M. (1995). The concept of man in the works of Alisher Navo'i and his predecessors. *DSc thes. philol.* Tashkent: Alisher Navo'i Institute of Literature.
22. Navo'i, A. (1960). *Khamsa* (P.Shamsiyev, Ed.). Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of Uzbekistan.
23. Navo'i, A. (1991). *Hayrat ul-abror* (Vol. 20, Vol. 7). Tashkent: Science.
24. Navo'i, A. (2000). *Muhokamat ul-lughatayn* (Vol. 16). Tashkent: Science.
25. Navo'i, A. (2024). *Hayrat ul-abror: Critical text and commentary* (A.Malik, Ed.). Tashkent: Tavfiqnashr.

26. Nazarova, D. (2022). Comparative analysis of Abdurakhmon Jami's "Subhat ul-abror" and Alisher Navo'i's "Hayrat ul-abror". *PhD thes. philol. scien.* Samarkand: Samarkand State University named after Sharof Rashidov.
27. Oybek, M.T. (1967). *Navo'i garden.* Tashkent: Science.
28. Oybek, M.T. (1979). *Main characters of the "Khamsa"* (Vol. 19, Book 13). Tashkent: Science.
29. Qayumov, A. (1977). *Interpretation of "Hayrat ul-abror"*. Tashkent: Publishing House of Literature and Art named after Gafur Gulom.
30. Qayumov, A. (2008). *Interpretation of "Hayrat ul-abror"* (Vol. 1). Tashkent: Classic Word.
31. Sharafiddinov, O. (1971). *Alisher Navo'i: Life and work.* Tashkent: Fiction Publishing House named after Gafur Gulom.
32. Sharipova, N. (2021). Poetics of Alisher Navo'i's "Hayrat ul-abror". *PhD thes. philol. scien.* Samarkand: Samarkand State University named after Sharof Rashidov.
33. Shaykhzoda, M. (1972). *The sultan of the ghazal realm* (Vol. 4). Tashkent: Publishing House of Literature and Art named Gafur Gulom.
34. Sirojiddinov, S. (1997). *Interpretation of the life and activity of Alisher Navo'i in 15th–16th century historical and tazkira memoir works.* Samarkand: Zarafshon.
35. Sirojiddinov, S. (1998). Persian-Tajik sources on the life and activity of Alisher Navo'i (15th–19th centuries): Comparative typological and textological analysis. *DSc thes. philol.* Tashkent: Alisher Navo'i Institute of Language and Literature.
36. Valikhojayev, B., & Vokhidov, R. (1981). *Navo'i's creativity as a source of inspiration.* Tashkent: Science.
37. Yusupova, D. (2011). *Artistic harmony of content and rhythm in Alisher Navo'i's "Khamsa"*. Tashkent: Classic Word.

Humoyun haqida tashbehlar	271
Sayyora TO‘YCHIYEVA. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi tilshunoslik va toponimikaga oid ma’lumotlar	280

СОДЕРЖАНИЕ

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

- Мухаммад ЧУТПУЛАТОВ.** Лингвостатистический анализ антропоцентрических паремий в английском и узбекском языках.....3
- Нилюфархон МАХМУДОВА.** Сравнительно-типологическое исследование явления градации в узбекском и английском языках.....18
- Нафруза АЗИЗОВА.** Лингвокогнитивное выражение концепта «внешний облик человека» во фразеологических единицах39
- Зилола РУЗИЕВА.** Система видовременных особенностей и способов действия глагола в русском языке55
- Мадина ХАЛМУРАДОВА.** Теоретические основы аксиологического исследования лексических единиц, выражающих «значения духовности».....74

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

- Ильяс ИСМАИЛОВ.** Специальные исследования, посвящённые дастану «Хайрат уль-абрар».....87
- Агата ОСИПОВА, Суфия ГИЗАТУЛЛИНА, Маликахон АКРАМХАНОВА.** Экзистенциальное пространство: маргинальность как норма в романе В.Пелевина «iPhuck 10»109
- Райхан НАЗАРОВА.** Экфрасис в английском романе XX–XXI веков: нарратологический и семантический аспекты.....125

ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ПЕРЕВОДА

- Шахида АБДУЛЛАЕВА.** Функционально-прагматические особенности перевода финансово-экономических терминов в английском и узбекском экономическом дискурсе144
- Ирода КАХАРОВА.** Прагматические и переводческие особенности эмотивных, звукоподражательных и модальных слов167
- Фарида НЕМАТОВА.** Лингвопрагматическое исследование перевода международной экономической переписки.....176

МЕТОДИКА

- Ин Сук ЧЖОН.** Пилотное исследование по обучению корейским идиомам посредством применения компьютерного подхода к изучению языка.....185
- Гуландом БАКИЕВА, Адаш РУСТАМОВА.** Путь к Scopus: методика написания научной статьи.....200
- Малика КАМАЛОВА.** Теоретико-методические основы совершенствования социокультурной компетенции студентов экономических ВУЗов при обучении лексике русского языка.....228

ЖУРНАЛИСТИКА

- Климентина ИСМАИЛОВА.** Приемы персонификации в современной радиопублицистике.....254

КОГДА ИСТОРИЯ ПЕРЕСКАЗЫВАЕТ

Диларам ЯРМАТОВА. Притчи о детях Хазрата Захириддина Бабура и его старшем сыне Хумаюне.....	271
Сайёра ТУЙЧИЕВА. Лингвистические и топонимические сведения в трудах Захириддина Мухаммада Бабура.....	280

CONTENTS

LINGUISTICS

Mukhammad CHUTPULATOV. Linguostatistical Analysis of Anthropocentrism-Based Paremiological Units in the English and Uzbek Languages	3
Nilufarkhon MAKHMUDOVA. A Comparative-Typological Study of the Phenomenon of Gradation in the Uzbek and English Languages.....	18
Nafruza AZIZOVA. Linguocognitive Representation of the Concept of Human Physical Appearance in Phraseological Units.....	39
Zilola RUZIYEVA. The System of Tense-Aspect Features and Modes of Verbal Action in the Russian Language	55
Madina KHOLMURODOVA. The Theoretical Foundations of the Axiological Study of Lexical Means Expressing <i>Spiritual Enlightenment</i>	74

LITERARY STUDIES

Ilyos ISMOILOV. Scholarly Studies Devoted to the Epic <i>Hayrat ul-Abror</i>	87
Agata OSIPOVA, Sufiya GIZATULLINA, Malikahon AKROMHONOVA. Existential Space: Marginality as a Norm in <i>iPhuck 10</i> by V.Pelevin.....	109
Raykhon NAZAROVA. Ekphrasis in the English Novel of the 20th–21st Centuries: Narratological and Semantic Aspects	125

THEORY AND PRACTICE OF TRANSLATION

Shokhida ABDULLAYEVA. Functional and Pragmatic Features of Translating Financial and Economic Terms in English and Uzbek Economic Discourse	144
Iroda KAKHAROVA. The Pragmatics of Emotive, Onomatopoeic, and Modal Words and the Peculiarities of Their Translation.....	167
Farida NEMATOVA. A Linguopragmatic Study of the Translation of International Economic Correspondence	176

METHODOLOGY

In Sook JEONG. A Pilot Study on Computer-Assisted Language Learning-Based Instruction of Korean Idioms	185
Gulandom BAKIYEVA, Adash RUSTAMOVA. Road to Scopus: Methodology of Writing a Scientific Article	200
Malika KAMALOVA. The Theoretical and Methodological Foundations for Improving the Sociocultural Competence of Students of Economic HEIs in Teaching Russian Vocabulary.....	228

JOURNALISM

Klimentina ISMAILOVA. Personification Techniques in Contemporary Radio Journalism.....	254
---	-----

THROUGH THE LENS OF HISTORY

Dilorom YORMATOVA. Similes about the Children of Hazrat Zahiriddin Babur and His Eldest Son Humayun.....	271
---	-----

Sayyora TOYCHIYEVA. Linguistic and Toponymic Information in the Works of Zahiriddin Muhammad Babur.....280